
“Obod xonadon — obod ko‘cha — obod mahalla” mezonlarini joriy etish bo‘yicha “Piyozchilik” mahallasida keng ko‘lamli bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Ayni kunlarda Piyozchilikda obodonlashtirish hamda bunyodkorlik ishlari qizg‘in ketmoqda. “Obod xonadon — obod ko‘cha — obod mahalla” mezonlari asosida uy-joyi ta‘mirga muhtoj va o‘ta og‘ir sharoitda yashayotgan oilalarning turar joylari ta‘mirlab berilmoqda. Mahalla ichki ko‘chlarida asfalthash, shag‘allashirish va betonlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Ana shunday tizimli ishlarning natijasida yurtdoshlarimizni uzoq yillardan beri o‘ylantirib kelayotgan eng birlamchi hayotiy ehtiyojlari hal etilmoqda.

Shuningdek aholining salomatligini tekshiruvdan o‘tkazish, kasalliklarni erta aniqlash va davolash bo‘yicha fuqarolar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi. Ehtiyojmand, boquvchisini yo‘qotgan aholi vakillariga sihatgohlarga yo‘llanmalar berilgan bo‘lsa, nogironligi bor, imkoniyati cheklangan yurtdoshlarimizga bepul dori-darmon berildi.

2024-01-24 18:25:13